



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 19-sentabr

VII-14-102-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo‘yicha Ishchi komissiyasining 2025-yil ikkinchi mavsumida g‘olib deb topilgan loyihalarga “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi “Tashabbusli budjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo‘llab quvvatlash chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi PQ-117-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi “Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-666-IV-sonli va 2024-yil 29-iyuldagi №KQ-787-IV-sonli qarorlarining ijrosini ta‘minlash hamda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va tuman hokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dagi mablag‘larni mazkur tadbirlarga yo‘naltirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining VII chaqiriq o‘n to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Kattaqo‘rg‘on tuman Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo‘yicha Ishchi komissiyasining 2025-yil ikkinchi mavsumida “g‘olib” deb topilgan loyihalarga “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida tuman hokimining birinchi o‘rinbosari – Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i M.Zavqiyevning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining “Ochiq budjet” axborot portal orqali “Tashabbusli budjet” jarayonida fuqarolar tomonidan o‘z hududidagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha qoldirilgan takliflarning Kattaqo‘rg‘on tumani bo‘yicha 2025-yil ikkinchi bosqichida g‘olib bo‘lgan loyihalarni “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” hisobidan moliyalashtirish bo‘yicha manzilli ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ga va tuman G‘aznachilik bo‘limi (N.Vasiyev)ga byudjetga tegishli o‘zgartirish kiritish, tumanning tegishli soha vakillari belgilangan tartibda to‘lovni amalga oshirish hamda ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanishni nazorat qilish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Safarov), “Kattaqo‘rg‘on kecha va bugun” gazetasi muharriri (O‘.Usmonov) ga “ovoz berish” jarayoni yakunida aniqlangan g‘olib takliflar, shuningdek, undagi shakllangan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha ma‘lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazib borishni ta‘minlasin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Xudayberdiyev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (M.Zavqiyev) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining
2025-yil 19-sentabrdagi
VII-14-102-7-96-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Kattaqo'rg'on tumani bo'yicha 2025-yil 2-mavsumida g'olib loyihalarni Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi hisobidan
moliyalashtirish bo'yicha
MANZILLI RO'YXAT**

T/r	Tadbirning xos (ID) raqami	Obyektning aniq manzili	Balansda saqlovchi korxonaning nomi	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish qiymati	Buyurtmachi tashkilot nomi
Jami					22 498 177 500	
1	052396781008	Andoqsoy MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Andoqsoy MFY Buyraboshi va Qizilovut qishlog'i ichki yo'llarini asfaltlash	1 499 917 500	"SAMARQAND MINTAQAVIY YO'LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
2	052396837008	Andoqsoy MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Andoqsoy MFY Qurg'on va Uzumzor ichki ko'chalarini asfaltlashtirish va aholiga qulaylik yaratish	1 499 917 500	"SAMARQAND MINTAQAVIY YO'LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
3	052396948008	Sebiston MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Sebuston MFY Sebuston qishlog'ining maktabga va qabristonga boradigan ichki yo'llarini asfaltlashtirish va axoliga qulaylik yaratish	1 499 917 500	"SAMARQAND MINTAQAVIY YO'LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
4	052398771008	Jumaboy MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Kattaqo'rg'on tuman Jumaboy MFYga qarashli Oltinsoy qishlog'ining ichki ko'chalarini asfaltlashtiri.	1 499 917 500	"SAMARQAND MINTAQAVIY YO'LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
5	052391230008	Burgansoy MFY	Tuman Obodonlashtirish	Olmasuvon qishlog'i yo'li yillar davomida ta'mirlanmagan. Qishda	1 499 332 500	"SAMARQAND MINTAQAVIY YO'LLARGA BUYURTMACHI

T/r	Tadbirning xos (ID) raqami	Obyektning aniq manzili	Balansda saqlovchi korxonaning nomi	Amalga oshirilishi lozim бўлган tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish qiymati	Buyurtmachi tashkilot nomi
			boshqarmasi	yogʻingarchilikda yoʻl loyga aylanadi, odamlar bozorga bora olmaydi, tez yordam mashinalari vaqtida yetib kela olmaydi. Aholi qiynalayapti. Yoʻlga asfalt yotqizish zarur — bu qulaylik, xavfsizlik va imkon yaratadi.		XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
6	052396245008	Chuyanchi MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Chuyanchi MFY ichki koʻchalarni asfaltlash	1 499 917 500	"SAMARQAND MINTAQAVIY YOʻLLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
7	052412136008	Sebiston MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Kattaqoʻrgʻon tuman Sebiston MFYga qarashli SHoʻr qishlogʻining qolgan 1100 metr, Albiysoy qishlogʻining 500 metr va Xalqobotguzari 800 metr.qismini asfaltlashtirish mablagʻ doirasida.	1 499 917 500	"SAMARQAND MINTAQAVIY YOʻLLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
8	052405447008	Sarayqoʻrgʻon MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	SAROYQOʻRGʻON MFY Ichki yoʻllarini asfalt qilish. Aholiga xarakatlanish uchun qulay shart sharoit yaratish.	1 499 917 500	"SAMARQAND MINTAQAVIY YOʻLLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
9	052397776008	Kumushkent MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Kumushkent MFY ning Kattaarab koʻchasiga 3 km asfalt qoplamasini yotqizish.	1 499 917 500	"SAMARQAND MINTAQAVIY YOʻLLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
10	052393772008	Mundiyon MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Mundiyon MFY qishloqlaridagi ichki yoʻllarini asfaltlashtirish.	1 499 917 500	"SAMARQAND MINTAQAVIY YOʻLLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
11	052395862008	Kattakoʻrpa MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Kattakoʻrpa MFY Kichik Koʻrpa qishlogʻi 2500 metr ichki yoʻllarini asfalt qilish	1 499 917 500	"SAMARQAND MINTAQAVIY YOʻLLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR

T/r	Tadbirning xos (ID) raqami	Obyektning aniq manzili	Balansda saqlovchi korxonaning nomi	Amalga oshirilishi lozim бўлган tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish qiymati	Buyurtmachi tashkilot nomi
						KORXONASI
12	052403150008	Tavoron MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Kattaqo'rg'on tuman Tavoron MFYga qarashli Chupboz qishlog'ining ichki kuchalarini asfaltlashtirish mablag' doirasida.	1 499 917 500	"SAMARQAND MINTAQAVIY YO'LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
13	052391348008	Qumoq MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Qumoq mahallasi va Mo'minxo'ja mahallasini bog'lovchi asosiy yo'lni 30V130 talabga javob bermaganligi va aholiga changdan zarar ko'rayotganligi sababli asfalt qoplamasi bilan qoplash va tamirlash	1 499 917 500	"SAMARQAND MINTAQAVIY YO'LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
14	052406042008	Sebiston MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Kattaqo'rg'on tuman Sebiston MFYga qarashli Qizilqosh qishlog'ining ichki kuchalarini asfaltlashtirish mablag' doirasida.	1 499 917 500	"SAMARQAND MINTAQAVIY YO'LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
15	052392522008	Sebiston MFY	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	Kattaqo'rg'on tuman Sebiston MFYga qarashli Nurbuloq guzari ichi kuchalarini asfaltlashtirish.	1 499 917 500	"SAMARQAND MINTAQAVIY YO'LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI